



Qo‘qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 4/2025

Qo‘qon DPI.

Ilmiy xabarlar



Кокандский ГПИ.

Научный вестник

№4/2025

<p>УЎК 5/9(08) КБК 72я5 К 99</p> <p>MUASSIS: Qo‘qon davlat pedagogika instituti Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.</p> <p>Jurnaldan maqola ko‘chirib bosinganda, manba ko‘rsatilishi shart.</p> <p>"Qo‘qon DPI.Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san’atshunoslikfan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.</p> <p>Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Сайт: www.kspi.uz journal.kspi.uz</p> <p>ISBN: 978-9943-7182-7-2 “CLASSIC” nashriyoti 2025</p>	<p>Bosh muharrir: Qo‘qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas‘ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor N.S.Jurayev Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor N.A.Kadirova Mas‘ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i D.O.rinboyev Nashr uchun mas‘ul: M.Z.Muydinov</p> <p>TABIYIY FANLAR И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isoq‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) А.Ж.Хусанов-физика-математика фанлари номзоди, доцент (O‘ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G.‘M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.No‘monov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)</p> <p>FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)</p> <p>ITIMOIY FANLAR Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)</p> <p>PEDAGOGIKA FANLAR Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)</p>
--	--



**BO‘LAJAK PEDAGOG O‘QITUVCHILARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI
SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYaLARNI QO‘LLASH
METODIKASI**

Kaldibekov Alibek Bolatbekovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada kasbiy kompetentlik, zamonaviy mutaxassislarga qo‘yiladigan malaka talablari, informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilari tayyorlash jarayonida ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratilgan metodlar va raqamli vositalardan samarali foydalanish jarayoni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, kasbiy kompetentlik, zamonaviy mutaxassis, Insert metodi, an’anaviy dars, professional tayyorgarlik, professional faoliyat.

**METHODOLOGY OF APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN
FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS**

ABSTRACT This article analyzes professional competence, qualification requirements for modern specialists, methods and effective use of digital tools aimed at forming their professional competence during the training of informatics and information technology teachers.

Keywords: Competence, professional competence, modern specialist, Insert method, traditional lesson, professional training, professional activity.

KIRISH

Xozirgi zamonaviy raqamlashgan axborot texnologiyalari ta’limni har tomonlama takomillashib zamon talablari asosida tashkil etilishi va yuqori samara berishi kabi masalalarni qo‘ymoqda. Shu boyis ta‘limning sifati va samarasi faqatgina tayyorlangan kadrlarga ko‘ra belgilanadi.

Yuqoridagilar asosida kardlarni tayyorlashga zamonaviy texnologiyalar talablari asosida yondashish maqsadga muvofiqdir. Kompetentli yondashuv tushunchasi, o‘rganilishi, o‘rni va ahamiyati. Bo‘lajak pedagog o‘qituvchilarni kasbiy kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasini ta’lim sohalariga tadbiq etish yuqori samara berishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi va mutaxassislarni tayyorlash muammolari respublikamiz va chet ellik mutaxassislar tomonidan bir qator adabiyotlarda yoritilgan. Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak pedagogi va mutaxassis shaxsini kaasbga shakllantirish masalalari M.A.Abdullajonova, O.A.Abdulina, A.A.Akbarov, X.A.Abduraxmanova, S.V.Safonova, N.A.Muslimovlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. O‘qituvchining kasbiy mahoratini tadqiq qilgan pedagog olimlar H.Abdukarimov, N.Azizzxo‘jaeva, A.Aliev, Yu.A.Axrarov, A.A.Verbitskiy, R.H.Jo‘raev, B.R.Jo‘raeva, J.G“.Yo‘ldoshev, S.M.Markova, G.M.Maxmutova, A.A.Hamidov, F.R.Yuzlikaevlarning ishlarida tadqiq etilgan.

Kompetentlik-biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ma’lum bir kasbda qo‘llaniladigan standartlar bo‘yicha bajara olish qibiliyati.

kompetentlikning quyidagi turlari mavjud:

- o‘zini tutish (individual)
- texnik (pofessional)
- boshlang‘ich (porogovaya)
- umumiyy
- maxsus
- differensial
- ijrochi.

1. O‘zini tutish kompetentligi-o‘zining professional vazifalarini bajarish paytida insonning individualligini xarakterlovchi kompetentlik tushuniladi.

2. Texnik kompetentlik-bu mexnat natijalari, professional majburiyatlarni bajarish standartlari bilan bevosita bog‘liq bulgan kompetentlik tushuniladi.

3. Boshlang‘ich kompetentlik-topshirilgan professional vazifalarni bajarish uchun ishchiga zarur bo‘lgan asos, baza kompetentlari tushuniladi.

4. Umumiyy kompetentlik-ma’lum bir kasb bilan shug‘ullanuvchi barcha insonlarni xarakterlovchi kompetenllik xisoblanadi.

5. Maxsus kompetentlik- aniq professional majburiyatlarni samarali bajarish uchun kerak bo‘lgan kompetentlik tushuniladi.

6. Differensial kompetentlik-u yoki bu darajada samarali ijrochilarni farqlashga yordam beradigan kompetenlik hisoblanadi.

7. Ijrochilik kompetentligi-erishilgan natijaning sifatini aniqlashtiruvchi kompetentlikdir.

Informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitish jarayonida kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan ta’lim metodlari va vositalaridan foydalanish.

Pedagog shaxsga qo‘yiladigan talablar asosida uning modelini ishlab chiqishda oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarida belgilab berilgan quyidagi holatlar asos uchun qabul qilindi [10]:

- pedagogning faoliyat sohalari: ta’lim va boshqaruv.

– pedagogning faoliyat turlari: o‘quv, metodik, tarbiyaviy, kadrlar bilan ishlash, ilmiy, tadbirkorlik, tashkiliy, ekspertlik va boshqalar.

– pedagogik faoliyat yurituvchi muassasalar: maktagacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, mактабдан ташқари та’лим, та’limni boshqarish organlari. Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar mazmuni asoslandi va ularning har biriga tavsif berildi.

Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etishdir. Ta’lim faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish haqiqiy amaliyatga aylanib bormoqda. Maktablarni jihozlar bilan ta’minalash ortib bormoqda, deyarli har bir mактабда interfaol doskalar, planshetlar, zamonaviy kompyuterlar, virtual reallik ko‘zoynaklari va boshqalar jixozlar mavjud. Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalardan foydalanish mumkin bo‘lgan ta’lim muhiti yaratilgan va ko‘pchilik o‘qituvchilar undan muvaffaqiyatli foydalanmoqda.

“Bugungi kunda ta’lim taraqqiyoti juda tez rivojlanmoqda va o‘zgarmoqda. Deyarli xar daqiqada sayyoramizning barcha burchaklarida turli o‘zgarishlar, yangilanishlar sodir bo‘lib kelmoqda. Xar bir kunimiz kuchli axborot oqimi ostida kechmoqda. Zamonaviy axborot oqimi va xajmining ko‘pligi xayotning xar bir laxzasi va joyida o‘qish jarayonida, uyda, ishxona va xatto dam olish vaqtida xam ta’sir etmokda.” [1].

Raqamli texnologiyalar xozirgi davrda nafaqat vosita, balki insonning zamonaviy olamda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish uchun yangi muhitdir. Raqamli ta’lim muhiti printsipial jihatdan yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Sinfdagagi ta’limdan istalgan joyda va istalgan vaqtda o‘qishga o‘tish, individual ta’lim yo‘nalishini loyihalash, shu bilan o‘quvchi shaxsining ta’lim ehtiyojlarini qondirish, talabalarni nafaqat elektron resurslarning faol iste’molchilariga, balki yangi resurslarni yaratuvchilarga aylantirish va boshqalar tushiniladi.

Zamonaviy kurslarning turli xillari mavjud bo‘lib bulardan, veb-seminarlar va seminarlar o‘tkazish orqali o‘qituvchilar ta’limda qo‘llaniladigan yangi raqamli texnologiyalar bilan tanishadilar. Ushbu mavzuni o‘rganishni rag‘batlantirish uchun turli tanlovlар o‘tkazilib, unda o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha o‘zlarining usul va uslublari bilan o‘rtoqlashadilar. O‘qituvchi qanchalik ko‘p texnologiyalarga ega bo‘lsa, u darsni shunchalik qiziqarli va xilma-xil o‘tkazishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar o‘qituvchi uchun zamonaviy cheksiz yangi texnologiya va imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu texnologiyalardan foydalanganda mumkin bo‘lgan ko‘rinishni namoyish qilish yanada muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Yangi zamonaviy texnologiyaning katta miqdori mavjud. Zamonaviy raqamli texnologiyalarga quyidagilar kiradi: o‘qituvchi va talaba o‘rtasida bирgalikdagi eksperimental tadqiqotlar texnologiyasi, “virtual haqiqat”, “panoramali tasvir” texnologiyasi, “3D modellashtirish”, “ta’lim robototexnikasi”, MSI texnologiyasi (kichik axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda), multimedia ta’lim. Kontent, interaktiv elektron kontent va boshqalar multimedia texnologiyalari o‘quv jarayoniga uyg‘unlik bilan kiritilmoqda.

Jamiyatni zamonaviy axborotlashtirish va o‘ziga xos ko‘rinish sifatida ta’limni axborotlashtirish ta’limni tashkil etishning yangi texnologiyalarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Axborotlashtirish oqibatlarini aks ettiruvchi ana shunday texnologiyalardan biri ochiq ta’lim bo‘lib, ochiq ta’lim makonini kengaytirish va globallashtirishning samarali usullaridan biri-masofaviy ta’lim texnologiyalarini (MT) rivojlanayotgan ochiq ta’lim tizimining eng muhim tarkibiy qismi sifatida ishlab chiqishdir.

“Ushbu ta’lim turi dunyo miqyosida keng qo‘llanilib yaxshi natijalar berib kelayotganligini inobatga oladigan bo‘lsak, masofaviy ta’limning o‘ziga xos texnologiyaviy turlari va ta’lim shaklini tashkil etishdagi ishtiroychilar mavjud. Masofaviy ta’limning asosiy texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin: Interaktiv texnologiyalar:

- internet masofaviy ta’lim portali;
- video va audio konferentsiyalar;
- elektron pochta orqali ta’lim olish;
- internet orqali mustaqil ta’lim olish;
- uzoqdan boshqarish tizimlari;
- onlayn simulyator va o‘quv dasturlarining mavjudligi va boshqalar” [2].

Internetda joylashgan ko‘plab saytlarda katta xajmdagi ma’lumotlar ustidan mustaqil ravishda ishslash va yangi bilimlar olish yularda ta’lim oluvchilar uchun eng muxim o‘quv-metodik baza vazifasini bajaradi.

“Elektron pochta orqali ta’lim esa, eng ommaviy Internet xizmatlaridan foydalanib, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida xatlar orqali muloqot o‘rnatib ta’lim olishda namoyon bo‘ladi. Uning yordamida turli xil test, vazifa, mustaqil ishlarni masofaviy ta’lim portallari va modullarga xujjatlarni joylash mumkin.

Mustaqil ta’lim olishda interaktiv bo‘lmagan texnologiyalar xam muxim axamiyatga ega. Ular qatoriga quyigilarni kiritish mumkin:

- video, audio va bosmaga chiqarilgan materiallar;
- televizion va radio ko‘rsatuvalar;
- disklarda joylashgan dasturlar.” [3].

Video va audio konferentsiyalar - bu Internet va boshqa telekomunikatsion aloqa kanallari yordamida, ikkita uzoqlashgan auditoriyalarni telekommunikatsion xolatda bir birlan bog‘lab ta’lim olish yuli. Video va audio konferentsiyalar uchun katta xajmda maxsus texnika, yuqori tezlikka ega bo‘lgan aloqa kanali va o‘qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislarini jalb etish kerak bo‘ladi.

Yangi zamonaviy texnologiyadan foydalanishni o‘rganish hayotiy ko‘nikma va muhim savodxonlik qobiliyatidir. Hozirda ta’limga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish jarayoni davom etmoqda. Bunday jarayon ko‘p vaqt va bilim talab etadi, lekin oxir-oqibatda “texnologiya - bu yangi bilim va yangi tajribaga yo‘l”. Vaqt o‘tishi bilan texnologiyadan foydalanish o‘qituvchilar uchun tanish bo‘lib qoladi va amalga oshirish oson bo‘ladi.

Albatta dars jarayonida yoki uyda, sinfda yoki istalgan joydan multimedia vositalari yorqamida ta’lim berish va ta’lim olish imkoniyatlarini, aynan bizning xududlarimizda kompyuter orqali amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligi maqsadga muvofiqdir.

Multimedia - bu kompyuter texnologiyalari sohasi turli xil (matn, grafik, audio) kompyuter vositalaridan foydalangan holda axborot materialni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘proq vizual va esda qolarli tarzda ma’lumotni yaratishga imkon beradi. Multimedia resurslaridan foydalangan holda dars jarayonlarini o‘tkazish talabalarning bilim olishi uchun eng yangi va kuchli rag‘batdir. Zamonaviy usul darslarda talabalarning aqliy jarayonlari yaxshilanadi. Dars jarayonida talabalarda diqqat, xotira, fikrlash ancha faolroq va tez sodir bo‘ladi hamda qiziqish ortadi.

“Kompyuterli o‘qitish metodikasining boshqa bir muxim xususiyati-o‘qitish jarayonining barcha bosqichlari, jumladan, yangi o‘quv materiallarini tushuntirish, takrorlash, umumlashtirish, talabalarning fan bo‘yicha erishgan bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirishda namoyon bo‘ladi. Bunday jarayonlarda kompyuter talaba uchun turli vazifalar, xususan, pedagogik, ta’lim vositasi, ta’lim ob’ekti, uzaro muloqot xamkori kabi funktsiyalarni bajaradi. Shu bilan birga bilimlarni baxolash va ularning tegishli standart va talablarga mosligi monitoringini tashkil etishdagi afzallikkari uning ukitish tizimiga keng joriy etilishiga sabab buldi.” [4].

Shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy axborot va kommunikatsiyalar texnologiyalar an’anaviy ta’limning o‘rnini bosmaydi, aksincha, uni to‘ldiradi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ta’minalash o‘quv materialini taqdim etish vositalarini tanlashda ijodkorlik erkinligi tomonidan shakllantirilgan ta’lim sifatining o‘sishiga pirovardida hissa qo‘shadi talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari sifati ortib boradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim muhiti, o‘quv jarayonining o‘zining sifatini yaxshilash, shuningdek, ular o‘qituvchining malakasiga ma’lum talablarni qo‘yadilar, undan doimiy ravishda o‘zining axborot texnologiyalari bo‘yicha malakasini takomillashtirish va yaxshilashni talab qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari maktab va universitetlarda ta’lim sifatini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, lekin ularni oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha boshqa chora-tadbirlar bilan uyg‘unlashtirish kerak.

Video tasvirlarni va ovozli ma’lumotlarni tahrirlash dasturlari o‘qituvchilar va foydalanuvchilar uchun juda katta yordamdir. Bunday dasturlar yordamida biz o‘quv dasturining turli mavzulari bo‘yicha o‘quv videolarini yaratishimiz mumkin.

SkrinCAST - bu kompyuter ekranida aks ettirilgan ma’lumotlarning raqamli video yozuvi, boshqacha qilib aytganda, “video ekran tasviri”, ko‘pincha ovozli sharhlar bilan birga keladi. Ushbu texnologiya bosqichma-bosqich ishni yozib olish, ekranda sodir bo‘layotgan voqeolarni ovozingiz bilan izohlash imkonini beradi.

OBS Studio-bu bepul dastur xisoblanadi, oldindan tayyorlangan rasmlar, videolar, taqdimotlar yordamida talabalarga materialni tushuntirish uchun video darslarni yozib olishim mumkin, ma'lum bir o'quv platformasi bilan qanday ishlashni, ma'lumotni qaerdan qidirishni va ko'p narsalarni ko'rsatishim mumkin.

Yana bir qiziqarli texnologiya - bu video skriping (bu qo'lda chizilgan dinamik video bo'lib, u chizma va qiziqarli hikoyaning kombinatsiyasidan iborat bo'lib, animatsiya va maxsus effektlar bilan to'ldiriladi).

Ushbu hodisaning mashhurligi bir necha sabablarga bog'liq. Birlamchi, video tasvirga oluvchilar diqqatni tortadi va uni uzoq vaqt ushlab turishga qodir. Ularning uslubi videolardan juda farq qiladi. Uning mashhurligining yana bir sababi shundaki, video yozish tomoshabinni sodir bo'layotgan voqeolarga jalb qilib, mavjudlik effektini yaratadi. Syujet haqiqatda, tomoshabinlar ko'z o'ngida rivojlanayotganga o'xshaydi.

Chroma key texnologiyasi - bu ma'lum, bir xil, asosiy rangda bo'yash va so'ngra ikkita yoki undan ortiq tasvir yoki ramkalarni bitta kompozitsiyada birlashtirish orqali bir nechta ramkalardan kontentning keraksiz qismini aniq kesib tashlash texnologiyasi.

Yakunida aytishimiz kerakki, elektron ta'lim an'anaviy ta'limni to'liq almashtirmasligi kerak, balki uni to'ldirishi kerak, chunki o'qituvchi va talabalar o'rtaсидаги jonli muloqotni hech kim va hech narsa almashtira olmaydi. O'qituvchi talabaning fikr-mulohazalariga ega bo'lib, o'qitish jarayonida o'quv materialini yanada tushunarli va tushunarli qilib qayta tashkil qilishi mumkin. Elektron ta'limning o'zi o'quvchini tirik aql, bu holda o'qituvchi tomonidan boshqariladigan tarzda moslashtira olmaydi.

MUHOKAMALAR

Ta'lim jarayonining mohiyatini o'zaro bog'langan uchta asosiy omillarni tashkil etadi, bularga o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish kiradi. Mavzu bo'yicha ko'plab adabiyotlar tahlil qilindi. Olimlarning qarashlari va tadqiqotlari o'rganildi. Ular tavsiya qilgan metod va vositalar tahlil qilindi. Shu asosida mashg'ulot mavzusi va maqsadidan kelib chiqqan holda mashg'ulotni tashkil qilgan samarali va tinglovchi o'zlashtirishi uchun maqbul bo'lishi asoslandi.

NATIJALAR

Berilayotgan axborotlar mashg'ulot mavzusining mazmuniga mos bo'lishi bilan birga talabalarda zarur ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi topshiriqlar va vazifalardan tashkil topishi, talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan axborotlar hajmini aniqlashi, ma'lum bir mantiqiy tizimda taqdim etilishi, uzviylik va uzuksizlik tamoyillariga mos kelishi, nihoyat, tizimlilik tamoyiliga javob bera olishi zarur. Shuningdek, axborotlarning talabalar tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqalari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun'iy intelekt tizimlarini kiritish mumkin.

O‘qitish metodlari ko‘p qirralidir. Shu sababli ham ularni ko‘plab tasniflari mavjuddir. Bu tasniflarda metodlar bir yoki bir nechta belgilar bo‘yicha jamlanadi.

1. An’anaviy tasnif. Umumiy belgi sifatida bilim manbai olinadi.

-amaliy: tajriba, mashqlar qilish, mustaqil ish, laboratoriya ishi.

-ko‘rgazmali: illyustratsiya, kuzatish.

-og‘zaki: tushuntirish, hikoya qilish, suhbat, ma’ruza.

-Kitob bilan ishlash: o‘qish, tez ko‘rib chiqish, s itata olish, bayon etish, qayta so‘zlab berish, konspekt.

-Video metod: Ko‘rib chiqish, Mashq ishslash.

2. Hozirgi kunda o‘qitish metodlarining uchta katta guruhi alohida ajratilgandir:

- o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari;

- o‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari;

- o‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlantirish va motivatsiya metodlari;

Ma’lumki, “Informatika va axborot texnologiyalari” o‘quv predmetining asosiy vazifasi o‘quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalarining ba’zi bir umumiyligi g‘oyalari bilan tanishtirish, axborot texnologiyalarining amaliyotdagi tatbiqini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi ro‘lini ochib berishdan iborat. Lekin, didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda, o‘quvchilarga nafaqat faktlarning qat’iy ilmiy bayonini berish, balki o‘qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo‘llashi lozim.

Bugungi kunda talabalarni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi asosiy maqsadlardan biri qilib qo‘yilgan. Ushbu masalani hal etilishi ko‘p jihatdan o‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llashga ham bog‘liq.

“Interaktiv” degan so‘z inglizcha “interact” so‘zidan kelib chiqqan. “Inter” - o‘zaro, “act” - ish ko‘rmoq, ishlamoq degan ma’nolarni anglatadi. Bunday metodlar hamkorlikda ishslashni talab etib auditoriyadagi barchani qamrab olishga qaratilagn. Interfaol o‘qitishning mohiyati o‘quv jarayonini shunday tashkil etadiki, unda barcha o‘quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Interfaol metoddan foydalanib o‘qitishni tashkilotchilari uchun, sof o‘quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir:

- guruhdagi o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari jarayonida, boshqalarning qobiliyatlarini tushunib yetish;

- boshqalar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish va ularning yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi;

- o‘quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish.

Shuning uchun interfaol usullardan foydalanib o‘qitish guruhlarida muvaffaqiyatlari faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan ikkita asosiy funksiyalar amalga oshirilishi lozim:

- o‘qitishning pragmatik jihat qo‘yilgan o‘quv masalasini yechishning shartligi;

- tarbiyaviy masalalarini yechish yani hamkorlikdagi ish jarayonida guruh a’zolariga yordam ko‘rsatishni shakllantirish.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shularni muhim deb bilamizki, har bir fan va mavzu raqamli texnologiyalar yordamida yoritilish jarayonida avvalo talaba yuqori darajali bilim olishi hamda yuqori kasbiy kompitentligini shakillantirishga qaratish, ularni kelgusida salohiyatlari va raqobat bardosh kadrlar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni yuqori texnologiyalar rivojlantirishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash kelgusida ham ta’lim va tarbiya beradigan dargohdan salohiyatlari yoshlar yetishib chiqishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. British Educational Communications and Technology Agency (Becta), (2004). A review of the research literature on barriers to the uptake of ICT by teachers. Retrieved from <http://www.becta.org.uk>.
2. Allayarova, S.N. Implementation of modern information communication technologies (Ict) in higher education sector: International experience and the example of Uzbekistan (2019) International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9 (1), pp. 386-392.
3. S. N. Allayarova “Masofaviy ta’lim: mazmuni, imkoniyatlari va kamchiliklari” Academic research in educational sciences. 2021 yil. 930-935-betlar.
4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T.: 2007. -305-b.

**BO‘LAJAK PEDAGOG O‘QITUVCHILARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI
ShAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYaLARNI QO‘LLASH METODIKASI
Kaldibekov Alibek Bolatbekovich**

203

**O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TINCHLIK, BARQARORLIK VA VATANPARVARLIK
TARBIYASI: PEDAGOGIK TAHLIL**

*Alijonov Baxtiyor Xoshimovich, Ergashaliyev Ro‘zali To‘ychiboy o‘g‘li, Abdullajonov Begzodbek
Farhodjon o‘g‘li, Odilov Saminjon Sobit o‘g‘li, O‘rmonboyev Sardorbek Oybek o‘g‘li*

211

**TIBBIY TA’LIMDA INGLIZ TILI O‘QITISHDA PEDIATRIYA YO‘NALISHI
TALABALARIGA SIMULYATSION TRENING MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH
METODIKASI**

Kadirova Munira Rasulovna, Yigitaliyeva Nozimaxon Farxodjon qizi

217

**TALABALARDA KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINING TAKOMILLASHTIRISH
MAQSADIDA IMMERSIV TEKNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA
TOPSHIRIQLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

Raxmatova Salima Togaymuradovna

221

**O‘QUVCHI-QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA QO‘LLANILADIGAN
PEDAGOGIK METODLAR VA ULARNING AHAMIYATI**

Robilova Sharofat Mamajon qizi

231

**O‘QISH BUZILISHLARINI TAHLIL QILISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY
NAZARIYALAR**

Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi, Utbasarova Umida Mexmanovna

240

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TABIATGA ONGLI MUNOSABATNI
SHAKLLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUV**

Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna

247

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI
SHAKLLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI**

Usmanova Sabohat Erkinovna

251

**SENSOR INTEGRATSIYA: BOLALARDA RIVOJLANISH, MUAMMOLAR VA ULARNI
YENGISH YO‘LLARI**

Usmanova Nilufar Ilhom qizi

255

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O‘QITISHDAGI ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING
QIYOSIY TAXLILI**

Yo‘lchiyeva Shaxloxon Obidjon qizi

264

WORDPRESS TIZIMI YORDAMIDA CMS TA’LIM PLATFORMASI YARATISH

Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

274

ТИЛ ТАЪЛИМИДА ФРЕЙМ ЁНДАШУВ

Умарова Яйрахон Тўхманазаровна

280

**РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

Абдирахмонова Гулистон Музффар кизи

285

RUS TILI O‘QITISHDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENTSİYANI QO‘LLASH

Alimsaidova Sayyora Amideyevna

293

**OLIY TA’LIM MUASSASALARI REYTINGINI OSHIRISHNING
NODAVLAT TIZIMINI YARATISH MASALALARI**

Tursunov Diyor Sunnatovich

298

**ИНТЕГРАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ
ПРОЦЕСС ИНЖЕНЕРНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ**

Агжанов Тимур-Мухаммет Сеитназарович

308

**EVALUATING THE TEACHING SYSTEM, LANGUAGE PROFICIENCY STANDARDS, AND
THE DEVELOPMENT OF SPECIALIZED MEDICAL ENGLISH VOCABULARY THROUGH
PROFESSIONAL TEXTS**

317